

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA PEDAGOGIK  
AMALIYOT JARAYONIDA O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH KOMPETENSIYASINI  
SHAKLLANTIRISH**

**Abdiyeva Qo'ysintosh Azadovna**

*Toshkent amaliy fanlar universiteti*

*"Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi"*

*kafedrasi o'qituvchisi*

**Esanboyeva Diyora Jo'ravoy qizi**

*Toshkent amaliy fanlar universiteti*

*"Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi*

*3-kurs talabasi*

*E-mail: [tesanov908@gmail.com](mailto:tesanov908@gmail.com) +998900004084*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirishning o'ziga xos jihatlari, boshlang'ich sinfdanoq o'quvchilar ongida shakllantirish xususida fikr muloxazalar bildirilgan. Xususan, boshlang'ich sinflarda kompyuter texnologiyalari orqali darslarni modellashtirish o'quvchilar bilimini oshirishga, ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga e'tibor qaratilgan va shu kabilar yuzasidan fikr muloxazalar keltirilgan.*

**Abstract:** *This article describes the specific aspects of the formation of self-development competitions in elementary school students, and opinions on forming them in the minds of students from the beginning of elementary school. In particular, the modeling of lessons through computer technologies in elementary grades is aimed at improving the knowledge of students, forming practical skills in them, and opinions are presented in this regard.*

**Аннотация.** *В данной статье рассмотрены конкретные аспекты формирования соревнований по саморазвитию у младших школьников, а также мнения по их формированию в сознании учащихся с начала начальной школы. В частности, моделирование уроков с помощью компьютерных технологий в младших классах направлено на совершенствование знаний учащихся, формирование у них практических навыков, и представлены мнения по этому поводу.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoniga muvofiq, shuningdek,




“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili”da sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta‘minlash maqsadida: **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida** quyidagi **ustuvor yo‘nalishlar** belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin: har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish; barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta‘minlash; suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish; qonun ustuvorligini ta‘minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish; “xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirishligi belgilab berilgan. Biz hamjamiyatimizga xizmat qilishga sodiqmiz va zamonaviy, doimiy o'zgarib turadigan hamjamiyatning markazida O‘zbekistonning asosiy qadriyatlarini qabul qilish yotadi, degan ishonamiz. Maktabda bizning farzandlarimiz O‘zbekiston qadriyatlarini, ta‘lim tizimini chuqur tushunishlari va ularga rioya qilishlarini ta‘minlash, ular zamonaviy hayotga tayyor bo‘lishlari uchun biz boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari mas‘uliyatli bo‘lishimiz lozimdir.

Bu maqsadlarni amalga oshirishda, Prezidentning "Pedagogik ta‘lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qaroriga muvofiq 2022/2023-o‘quv yilidan boshlab kunduzgi ta‘lim shaklidagi 2–4-bosqich talabalar uchun haftalik o‘quv mashg‘ulotlar "4+2", jumladan darslarning 4 kuni OTMda, 2 kuni umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida amaliyot o‘tash tartibida olib borilmoqda.

Shu erda “Agar kimda-kim maktab bu faqat Xalq ta‘limi vazirligining ishi, deb o‘ylasa, bu juda xato fikr va xato yondashuv. Butun elimiz bilan, butun jamiyatimiz bilan Xalq ta‘limi vazirligiga e‘tibor bermasak, qo‘ygan natijalarimiz bo‘lmaydi. Bir kun emas, bir soat ham kechiksak, iqtisodiyotimizga, ertangi kunimizga, yoshlarimizga katta ziyon bo‘ladi”, degan prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ibratli so‘zlarini keltirib o‘tishni joiz deb bildim. Shunday ekan, malakaviy amaliyot bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning shunday bosqichiki, bunda har bir o‘quvchiga ta‘lim-tarbiya berishda oliy o‘quv yurtida to‘plagan bilim hamda o‘quvlarining hammasidan kompleks tarzda foydalanishga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun pedagogik amaliyot vaqtida o‘qish jarayonidagi barcha kamchiliklar yaqqol ochilib qoladi. Shunday qilib, pedagogik amaliyot o‘ziga xos imtihon hisoblanadi.

Amaliyotga jalb etilgan talabalar malakaviy amaliyot davrini birinchi kundanoq to‘g‘ri yo‘l tanlash, ya‘ni o‘quvchilar bilan munosabatga kirish usullarini to‘g‘ri tanlash juda muhimdir. Amaliyotga jalb qilingan talaba avvalambor maktab rahbariyati tomonidan birlashtirilgan sinf rahbari bilan hamda o‘quvchilar bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘lsa, ya‘ni ularga hayrixoxligi va kamtarligini namoyon qilsagina tezda o‘quvchilar bilan inoqlashib ketadi.






Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining amaliyotga jalb qilishdan ko'zlangan maqsad umumiy o'rta ta'lim, maktabgacha ta'lim tizimini to'liq faoliyati bilan tanishtirish. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining amaliy-kasbiy ko'nikalarini shakllantirish va pedagogik amaliyotga tayyorlashdir.

Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim maktablari zimmasiga ta'lim-tarbiya jarayoni orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish vazifasi yuklatilgan. Evropa tajribasiga tayangan holda O'zbekiston ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi, shakllantiriladigan ta'lim kompetensiyalarini tanlash va ularni ta'lim tizimiga singdirish orqali respublikamizda ta'lim tizimi samaradorligini oshirish maqsadida shu kompetensiyaviy tizimga qabul qilindi. Kompetensiya so'ziga turlicha ta'riflar, yondashuvlar mavjud. Xususan, «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»da kompetensiya so'zi quyidagicha izohlanadi: kompetensiya (lot. competo – erishyapman, munosibman, loyiqman) – muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; u yo bu sohadagi bilimlar, tajriba. “Kompetensiya” atamasi keng ma'noda umumiy masalalarni hal etishda amaliy tajribalar asosida bilim va malakalarni qo'llash, muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatini bildiradi. Lotincha “campetere”-muvofiq bo'lmoq so'zidan kelib chiqqan. Kompetensiya – bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat belgisidir. U bilim mahsuli bo'lib, mutaxassis tomonidan uni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Kompetensiyaning bilimdan farqi shundaki, vazifani amaliy bajarmasdan turib, uni aniklab ham, baxolab ham bo'lmaydi. Malaka kompetentlikning muhim mezoni bo'lib, u turli holatlarda, shu qatori muammoli vaziyatlarda ham bir necha bor qo'llash natijasida namoyon bo'ladi.

Demak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik amaliyot jarayonida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish deganda talabalar avvalam bor nima ekanligini tushunib olishlari kerak. **O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi** bu — doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayoti davomida mustaqil o'qib-o'rganish, va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallaylab borishdi.

O'z-o'zini tarbiyalash - bu shaxs tomonidan shaxs sifatida uni maksimal darajada amalga oshirishga qaratilgan ongli faoliyat. O'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini faollashtirishga asoslanib, u aniq amalga oshirilgan maqsadlar, ideallar va shaxsiy ma'nolarning mavjudligini taxmin qiladi. Bu nafaqat ta'limni





mustahkamlash, balki shaxsni shakllantirish jarayonini rivojlantirish bilan ham uzviy bog'liqdir. O'z-o'zini tarbiyalashning zaruriy tarkibiy qismlari shaxsiy rivojlanishni o'z-o'zini tahlil qilish, o'zini o'zi hisobot qilish va o'zini o'zi boshqarishdir. O'z-o'zini tarbiyalash texnikasi o'z-o'zini tartibga solish, o'zini o'zi tasdiqlash va o'z-o'zini gipnoz qilishni o'z ichiga oladi. O'z-o'zini tarbiyalashning zaruriy sharti - bu o'zi haqida haqiqiy bilimlarning mavjudligi, to'g'ri qadrlash, o'z-o'zini anglash. O'z-o'zini tarbiyalash bir qator sub'ektiv va ob'ektiv sabablar bilan shartlangan: yaxshiroq bo'lishga intilish, jamiyatning fuqarolarga bo'lgan talablari, ularning ma'lumotlari va fazilatlar; ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchiga ta'sir ko'rsatadigan pedagogik ta'sirlar. Ushbu sabablarning ta'siri ostida o'z-o'zini tarbiyalashning ichki old shartlari yaratiladi, ehtiyojlar, qarashlar va e'tiqodlar shakllanadi, hayotiy ideallar va maqsadlar aniqlanadi yoki shakllanadi.


Shu tushunchalarni nazarda tutgan holda, talabalarni ta'lim muhitiga moslashtirish, ko'nikmalarini shakllantirish, nazariy olingan bilimlarni mustahkamlash, rivojlantirish; o'quv jarayonini yo'lga qo'yish bo'yicha o'quv meyoriy hujjatlar bilan tanishtirish; ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayonining hususiyatlari to'g'risida tasavvurni shakllantirish; talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirish; talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish bu malakaviy amaliyot o'tash davrining vazifasi sanaladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari Mazkur amaliyotni o'tash uchun mutaxassislikka kirish, pedagogik kasbiga kirish, boshlang'ich ta'limda tarbiya fani, umumiy psixologiya, ona tili-o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi, matematika va uni o'qitish metodikasi kabi fanlarni mukammal darajada bilishi lozim. Boshlang'ich ta'lim fanlari va pedagogik amaliyot uchun fundamental asos bo'lib xizmat qiladi.

Talaba o'quv tanishuv davomida birlashtirilgan umumiy o'rta ta'lim muassasasining ijtimoiy muhiti, ta'lim muhiti, muassasa subyektlari o'rtasidagi munosabatlar, ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchilar bilan ishlash prinsiplari, mediasavodxonlik va o'qituvchilarning metodik usullarini o'rganib ular haqida amaliy ko'nikmalar xosil qilishlari kerak.

Toshkent amaliy fanlar universitetining II va III bosqich kunduzgi va kechiki ta'lim shaklida tahsil olayotgan "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi talabalarining 4+2 amaliyot dasturi asosida amaliyot jarayonini tashkil etilyotgani buning yaqqol misolidir. Hozirgi kunda boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan jami 301 ta talaba amaliyot jarayonida faol qatnashib kelmoqda. Malakaviy amaliyot jarayonida ular sinf xonalarini zamonaviy talabalar asosida jihozlashga, ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, dars ishlanmalari, uslubiy tavsiyanomalar va boshqa





kerakli materiallarni mukammal egallaydilar. Barchamiz bilamizki, Maktab o'quvchilarni kelajakdagi muvaffaqiyatga tayyorlaydi. Maktab o'quvchilarni zamonaviy O'zbekiston hayotiga tayyorlaydi: ularni jamiyatga ijobiy hissa qo'shadigan mas'uliyatli, hurmatli, faol fuqarolar qilib tarbiyalash; chin ma'noda bilim olish tushunchalarini rivojlantirish; xilma-xillikni tushunish va qadrlashni rivojlantirish. Umid qilamizki, ushbu yangi hudud sizga boshlang'ich maktabida yana nima taklif qilayotganimizni ko'rish uchun sizga kerak bo'lgan barcha ma'lumotlarni beradi, bu Yerdagi bolalarga har kuni foydalanadigan asosiy ko'nikmalarni o'rganishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, talabalar boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan suhbatlashib, mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan e'tibor, ularga yaratilayotgan imkoniyat va imtiyozlar hususida so'z yuritgan bo'lsa, amaliyot davomida o'quvchilar o'zlarining mamlakat istiqboli va taraqqiyotidagi o'z fikr-mulohazalari, kelajakdagi maqsad va g'oyalari bilan o'rtoqlashib borishadi. Amaliyot jarayonda o'quvchilar tomonidan bildirilgan taklif va mulohazalar tinglanib, har bir bola jamiyatda o'zining faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishi, kelgusida iqtidorli va har tomonlama yetuk, o'z kasbining ustasi bo'lib yetishishi borasida zarur maslahat va tavsiyalar berib boriladi. Biz barcha boshlang'ich sinf o'quvchilarining zamonaviy ta'lim olishga intiladi degan umiddamiz! Biz barcha bolalarimizga taqdim etayotgan bilim olish usullarini va ularni mustahkam egallashlarini va o'quvchilarimizga o'quv dasturining barcha sohalarida va maktab ichida taqdim eta oladigan ta'lim va ta'lim imkoniyatlarini yaxshilashga doimo ishonamiz. Boshlang'ich sinfda barcha bolalar uchun eng yaxshisini xohlashimizni hech qachon unutmaymiz va farzandingizga hayotning eng yaxshi boshlanishini berish uchun harakat qilamiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Prezident Islom Karimovning IX sessiyasida so'zlagan nutqi. 1997-yil 29-avgust.-T. »Sharq», 1997.
2. «Ta'lim to'g'risida «O'zbekiston Respublikasi» qonuni. 11-modda.
3. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T. 2003.
4. Asqarova O'. M. Pedagogika.-Toshkent, «Talqin», 2008
5. Bo'ronov M, Qurbaniyozov.G. Pedagogik amaliyot-ixtisoslik kamoloti- Nukus, «Bilim», 1995





6. Bo'ronov M, Qurbaniyozov G Dars kuzatish- ma`suliyatli ish, Nukus, «Bilim», 1995
7. Pedagogika: darslik / ostida. tahrir. P.I. Perky. - M.: Oliy ma'lumot, 2006.
8. Podlasi, I.P. Pedagogika: darslik / I.P. Nordon. - M.: Oliy ma'lumot, 2006.
9. Psixologiya va pedagogika: O'quv qo'llanma / Ed. IN va. Jukova, L.G. Lapteva, A.I. Podolskaya, V.A. Slastenin. - M.: Psixoterapiya institutining nashriyoti, 2004.

